



## HADIS ILMIDA “ILM AL-ILAL” HAMDA “JARH VA TA’DIL” NING O’RNI

*Abdunabiyeva Aziza*

*O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi*

*Telefon raqami: 93 565 12 28*

*Ilmiy rahbar: D.M.Muratov*

*Tarix fanlari nomzodi,*

*Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o’rganish ICESCO kafedrasni*

*dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “ilm al-ilal” hamda “al-jarh vat-ta’dil”ning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek, hadislarning ishonchilik darajasini aniqlashdagi o’rni yoritilgan.

**Tayanch so’zlar:** illat, ma'lul, shoz, siqa, jarh, ta’dil, adl, zabit, balog’at, sahih, zaif.

Hadis ilmi istilohida illat deb, hadisdagi sahihlikka putur yetkazadigan maxfiy sababga aytildi. Mazkur yashirin sabab isnod va matnning chuqr taftishidan keyin aniqlanishi shart. Aks holda, bu “illatli hadis” hisoblanmaydi. Hokim Naysoburiyning ta’kidlashicha, hadis “jarh va ta’dil” tadqiqida aniqlanmaydigan kamchiliklar bilan illatli deb baholanadi. Chunki, marjuh (jarh qilingan) roviyning rivoyati e’tibordan tushib, qabul qilinmaydi. Hadisdagi “illat” esa “siqa” roviylarning rivoyatlarida uchraydi. Bunga ularning o’zlariga maxfiy bo’lgan “illatli hadis”larni rivoyat qilishlari sabab bo’ladi. Muhaddislarning bu boradagi, ya’ni hadisni “illatli” deb baholashlariga hujjatlari ilm, fahm va ma’rifatdir<sup>1</sup>. Shuning uchun ham ilmning bu sohasida mahoratga erishish uchun o’tkir zehn, zakovat va tanqidiy qarash malakasi shakllangan bo’lishi shartdir.

<sup>1</sup> D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova. Hadisshunoslik. - T.: Toshkent islom universiteti, 2013. - 222b.



Buning uchun hadis roviylarini tanish, ularning tug‘ilgan yillari va vafotlari, ismlari, laqablari, kunyalarini va o‘zaro muloqotlarini batafsil tarzda bilish hamda hadis lafzlariga chuqur nazar sola olish zarurdir<sup>2</sup>.

Imom Ibn Mahdiy: “Yigirmata noma’lum hadisni yozgandan ko‘ra, biror hadisni sahihligiga putur yetkazadigan illatni yuzaga chiqarish men uchun muhimdir”<sup>3</sup>, degan edi.

Imom Termiziy o‘zining “Kitob al-ilal” nomli asarida yozadi: “Kitobda hadislar, kishilar va tarixiy ma’lumotlardagi illatlar ham zikr qilingan bo‘lib, ularni men tarix kitoblaridan chiqarganman. Ularning ko‘pchiliginu Muhammad ibn Ismoil (Imom Buxoriy) bilan muhokama qilganman. Ayrimlarini esa Abdulloh ibn Abdurrahmon (Imom Dorimiy) va Abu Zur’a bilan muhokama qildim. Ulardan aksariyati Muhammad (Imom Buxoriy) dan, ozrog‘i esa Abdulloh (Imom Dorimiy) va Abu Zur’adan olingan. Iroqda ham, Xurosonda ham illatlarning ma’nolarini, tarixiy ma’lumotlarni, sanadlarni tanishda Muhammad ibn Ismoil (Imom Buxoriy) dan ko‘ra ko‘proq biladigan biror kishini ko‘rmaganman!”<sup>4</sup>. Imom Termiziy “nasx”ning ham “illat” deb qayd qilgan o‘rinlar mavjud. Ba’zi o‘rinlarda roviyning yolg‘onchiligi, xotirasining yomonligi kabi zohirda ko‘rinib turadigan sabablar bilan ham rivoyatlar “illatli” deb baholanadi. Tadqiqotchilar “ma’lul” atamasi juda keng ma’noli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga “shoz”ni ham qamrab olishini ta’kidlaganlar. Ularga ko‘ra, “shoz”ning “illat”dan alohida o‘rganilishi uning ahamiyati sabablidir. Sahih hadis shartidagi “illat va shoz bo‘lmisin” degan qismi ularning ikkita shart ekanini anglatmasdan, “shoz”ni “illat”ning ichidan ajratib ko‘rsatishdir.

Ahmad ibn Hamdundan rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriyni Said ibn Marvonning janozasida ko‘rdim. Uning shayxi Muhammad ibn Yahyo Zuhliy ismlar, kunyalar va illatli hadislar borasida u kishiga savol berar edi. Imom Buxoriy berilgan savollarga “Qul huval Allohu ahad” ni o‘qigandek javob berar edi”<sup>5</sup>.

<sup>2</sup> Abu Amr Usmon ibn Abdurrahmon ash-Shahrazuriy. Muqaddimatu ibn Saloh. / Tahqiq: Doktor Nuriddin Itr. – Damashq: Dor al-fikr, 1986. – B. 42.

<sup>3</sup> Jaloliddin Suyutiy. Tadrīb ar-roviy. J. II. – Jidda: Dor al-minhoj, 2016. – B. 42.

<sup>4</sup> Abu Iso at-Termiziy. Al-Jome as-sahih. J. II. – Misr: Shirkat maktabat, 1978. – B. 233.

<sup>5</sup> Abdulvahhab ibn Ali ibn Abdulkofiy as-Subkiy. Tabaqot as-Subkiy. J. II. – Qohira: Dor ihyo al-kutub al-arabiyya, 1989. – B. 229., Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Hadyu as-soriy. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 1997. – B. 488.,



Abu Homid A'mash naql qiladi: "Imom Buxoriy majlisiga Imom Muslim kelib: "Ubaydulloh ibn Umar Abu Zubayrdan, u Jobirdan: "Rasululloh (s.a.v.) bizni sariya bilan yubordi va biz bilan Abu Ubayda ham bor edi", deb rivoyat qilgan hadisni aytib: "Sizda ushbu hadis bo'lsa, sanadini muttasil qilib bera olasizmi?", deb iltimos qildi. Chunki, hadisdagi Ubaydulloh, tobein bo'lib, Imom Buxoriy bilan uni o'rtasidagi sanad bog'langanmi yo'qmi? Agar sanad bog'langan bo'lsa, hadis illatlimi yoki sahihmi? Agar illatli hadis bo'lsa, illati ma'lummi yoki noma'lummi? Shunda Imom hadisni muttasil sanad bilan quyidagi tarzda aytib berdi:

حَدَّثَنَا أَبْنُ أَوْيِسَ، حَدَّثَنِي أَبِي، عَنْ سَلَيْمَانَ بْنِ إِلَالٍ، عَنْ غَيْبَيْدِ اللَّهِ

"Bizga Ibn Abu Uvays hadis aytib berdi. U bizga o'z hadisini aytdi, degan, u esa Sulaymon ibi Biloldan, u Ubaydullohdan..."<sup>6</sup>. O'sha majlisda yana quyidagi voqeа bo'lib o'tdi: "Bir kishi quyidagi hadisning sanadini va o'zini o'qib eshittirdi:

حَجَاجُ بْنُ مُحَمَّدٍ عَنْ أَبِيهِ جَرِيْحٍ عَنْ مُوسَى بْنِ عَقْبَةَ عَنْ سَهْيَلِ بْنِ أَبِيهِ صَالِحٍ عَنْ أَبِيهِ عَنْ أَبِيهِ عَنْ أَبِيهِ هُرَيْزَةَ قَالَ كَفَّارَةَ الْمَجْلِسِ إِذَا قَامَ الْعَبْدُ أَنْ يَقُولَ سُبْحَانَكَ اللَّهُمَّ وَبِحَمْدِكَ أَشْهَدُ أَنَّ لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ أَسْتَغْفِرُكَ وَأَتُوْبُ إِلَيْكَ .

Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilinadi: "Rasululloh (s.a.v.): "Majlisning kafforati banda turgan paytda "Subhanakallohumma va bihamdika ashhadu an la ilaha illa anta astagfiruka va atubu ilayka", demoqligidir" dedilar". Imom Muslim ushbu hadisni eshitib: "Bu hadisning mana shundan ko'ra oliy sanadi dunyoda bo'lmasa kerak", deb, u hadisni boshqa ikki sanaddan rivoyatini aytib berdi. Undan biri quyidagicha:

حَدَّثَنَا مُحَمَّدُ بْنُ سَلَامَ حَدَّثَنَا مُخْلَدُ بْنُ يَزِيدَ الْحَرَانِيُّ أَخْبَرَنَا أَبْنُ جُرَيْحٍ عَنْ مُوسَى بْنِ عَقْبَةَ عَنْ سَهْيَلِ بْنِ أَبِيهِ صَالِحٍ... عَنْ أَبِيهِ هُرَيْزَةَ

Ikkinchisi esa, quyidagi tarzda edi:

وَحَدَّثَنَا أَحْمَدُ بْنُ حَشْبَلَ وَيَحْيَى بْنُ مَعْنَى قَالَا حَدَّثَنَا حَجَاجُ بْنُ مُحَمَّدٍ

Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'lom an-nubalo. J. 12. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 1992. – B. 432-455., Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Xatib Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod. J. II. – Bayrut: Dor al-g'arb, 2001. – B. 31.

<sup>6</sup> Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Xatib Bag'dodiy. Tarixi Bag'dod. J. II. – Bayrut: Dor al-g'arb, 2001. – B. 29.



Imom Buxoriy Imom Muslimning: “Mana shundan ko‘ra oliy sanadi dunyoda bo‘lmasa kerak”, degan so‘zlariga javoban: “Lekin u (sanad) illatli”, dedi. Buni Imom Muslim eshitib: “La ilaha illalloh!”, deb, titrab, uni illati haqida so‘ray boshladi. Shunda Imom Buxoriy: “Alloh taolo ushbu sanadga parda tashlab qo‘ydi. Shuning uchun uni shunday qoldirish lozim”, dedi. Lekin, Imom Muslim Imom Buxoriydan qo‘yarda-qo‘ymay hadis illatining sababini so‘rayverdi. Shunda Imom Buxoriy hadisni illatlanish sababini quyidagicha bayon etdi: “Muso ibn Uqbaning Suhayl ibn Abu Solihdan hadis eshitgani sobit emas”, dedi. Bundan keyin Imom Buxoriy hadisning illatsiz quyidagi sanadini zikr qilib keltirdi:

حَدَّثَنَا مُوسَى بْنُ إِسْمَاعِيلَ حَدَّثَنَا وَهِيْبٌ حَدَّثَنَا سُهْلٌ عَنْ عَوْنَ بْنِ عَبْدِ اللَّهِ...  
Haddithna Musa ibn Ismoil, Haddithna Wehib, Haddithna Sulayman, 'Anba' b. Abdurrahman...

“Bizga Muso ibn Ismoil hadis aytdi. U bizga Vuhayb hadis aytdi, degan. U bizga Suhayl Avn ibn Abdullohdan hadis aytdi, degan”<sup>7</sup>.

Ism va kunyalar borasida quyidagi voqealarni ham juda mashhur va qiziqarli. U Imom Buxoriy hazratlarining zehnlari va xotiralarining o‘tkirligini namoyon qiladi: Imom Firyobiy Imom Buxoriy huzurida quyidagi sanadni o‘qidi:

حَدَّثَنَا سُفْيَانُ عَنْ أَبِي عَرْوَةَ عَنْ أَبِي الْخَطَّابِ عَنْ أَبِي حَمْزَةَ.  
Haddithna Sufyan, 'Anba' b. 'Urwah, 'Anba' b. al-Khatib, 'Anba' b. Hamza...

“Bizga Sufyon Abu Arubadan, u esa Abul Xattobdan, u esa Abu Hamzadan hadis aytdi”. Majlisdagilar Sufondan keyingi shayxlarni taniy olishmadni. Shunda Imom Buxoriy: “Abu Aruba - Mamar ibn Roshid, Abul Xattob – Qatoda ibn Dioma Sadusiy va Abu Hamza Anas ibn Molik (r.a.)”, deb: “Sufyon odatda mashhur shayxlarning kunyasini zikr qiladi”<sup>8</sup>, dedi.

Isnod va matndagi yashirin kamchiliklarni aniqlashda “ilm al-ilal” ning ahamiyati shundaki, bu ilm sohasi orqali tadqiqotchi hadis isnodi va matnida uchraydigan illatlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgani sababli, ushbu ilmda mohir bo‘lgan olimning fikriga ko‘ra, rivoyatning sahihlik yoki zaiflik darajasi belgilanadi. Shuningdek, “al-Jarh vat-ta’dil” kitoblari ham hadislar illatlarini aniqlashda muhim

<sup>7</sup> Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Hadyu as-soriy. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 1997. – B. 488., Shamsuddin Zahabiyy. Siyaru a’lom an-nubalo. J. 12. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 1992. – B. 436-437., Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Xatib Bag‘dodiy. Tarixi Bag‘dod. J. II. – Bayrut: Dor al-g‘arb, 2001. – B. 29.

<sup>8</sup> Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Hadyu as-soriy. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 1997. – B. 478., Sahihi Buxoriy sharhi. J. I. -Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – B. 30.



manba hisoblanadi. Ibn Mainning “at-Tarix”i, Imom Buxoriyning “at-Tarix al-kabir”i, Ibn Abu Hotimning “al-Jarh vat-ta’wil”i shular jumlasidandir.

“Jarh” so‘zi lug‘atda “yaralash”, “ta’na qilish” kabi ma’nolarni anglatadi. Hadis ilmi atamasi sifatida roviy yoki guvohga uning gapi e’tiborga olinmasligi, unga amal qilinmasligiga sabab bo‘luvchi salbiy shaxsiy sifatlarning nisbat berilishiga aytildi.

“Ta’wil” esa, “addala” so‘zining masdari bo‘lib, lug‘atda “adolatli deb topish” ma’nosini anglatadi. U yolg‘onning ziddidir. Istilohda roviy yoki guvohga uning gapi e’tiborga olinib, amal qilinishiga sabab bo‘luvchi shaxsiy ijobiy sifatlarning nisbat berilishiga “ta’wil” deb aytildi. Shuningdek, roviyningadolat yoki zabit (mukammal xotira) kabi sifatlar bilan zikr qilinishiga ham “ta’wil” deyiladi. Qisqacha qilib aytish mumkinki, ushbu ilm hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash maqsadida roviylarning shaxsiy-ma’naviy ayblari hamda fazilatlarini o‘rganadi<sup>9</sup>.

Islom ta’limotiga ko‘ra odob yuzasidan kishining aybini ochish gunoh sanaladi. Ammo hadislarni soxtalashtirishdan himoyalash, sunnatni kelgusi avlodga sof holda yetkazish zarurati yuzasidan yolg‘onchilikda nom qozongan kishilar haqidagi ma’lumotlarni jarh va ta’wil ilmiga oid asarlarda muayyan odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda berilishi joriy etildi. Shuningdek, Imom G’azzoliy “Ihyo al-ulum ad-din”, Imom Navaviy esa “Riyoz as-solihiyn” asarida “Tirik yoki o‘lik odamni g‘iybat qilish agar bu shar’iy maqsad yo‘lida bo‘lsa va unga yetishishni boshqa yo‘li bo‘lmasa joizdir” deyishgan. Ushbu joizlik besh shar’iy zaruratning oltinchi turi, ya’ni roviyni jarh qilish hisoblanadi<sup>10</sup>.

Aslida, muhaddislar umuman hech kimni g‘iybat qilmaganlar. Lekin ular dinni saqlash va hadislarni himoya qilish uchun pand-nasihat qilishib, ochiq-oydin lafzlar bilan haqiqatni insonlar qarshisiga qo‘yishgan. Ali ibn Madiniydan rivoyat qilinishicha, bundan ikki yuz yil oldin chodirlarini jannatga tikib qo‘ygan kishilarni

<sup>9</sup> D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova. Hadisshunoslik. - T.: Toshkent islam universiteti, 2013. - 219b.

<sup>10</sup> Nuriddin Itr. Usulu jarh va ta’wil. - Damashq: Dor al-Yamoma, 2007. - 110 b.



biz tanqid qilamiz. Bu bilan u: “Zaif roviylarni jarh qilish g‘iybat emas, dinimizning zarurati”, demoqchi. Imom Ahmad ibn Hanbal bir roviyni jarh qilganda, unga bunday degan: “Ey shayx, olimlarni g‘iybat qilmang!”. Imom Ahmad: “Sho‘ring qurg‘ur, bu g‘iybat emas, nasihatdir”, dedi. Imom Ahmad ibn Hanbal jarh haqida bunday degan: “Olim ehtiyyotkorlik bilan javob bersa, johil tushunmay qoladi va haq ayon bo‘lmay qoladi”.

Abdulloh ibn Muborak qaysidir roviyni jarh qilganda, bir kishi unga: “Ey shayx, g‘iybat qilyapsiz”, dedi. Unga javoban shayx bunday dedi: “Jim bo‘l! Biz bayon qilmasak, haq botildan qanday bilinadi?”

Imom Termiziyo‘zining “Kitob al-ilal” asari muqaddimasida bunday degan: “Jarh va ta’dil imomlari zaif roviylar borasida gap-so‘z qilishib, ularni zaif roviy deb hukm qilganlar. Ularni bu ishga musulmonlarga pand-nasihat qilish undagan. Ular borasida “Insonlarga ta’na-dashnom va g‘iybat qilishni xohlaganlar” deb gumon qilinmaydi<sup>11</sup>.

Yahyo ibn Said Qattonga bir kishi e’tiroz bildirib: “Alloh taolo huzurida anavilarni sizga da’volari bo‘lishidan qo‘rqmaysizmi?” degan. U: “Rasululloh (s.a.v.) hasmim bo‘lgandan ko‘ra anavilar hasmim bo‘lishi menga ma’qulroq”, dedi. Imom Navaviy: “Roviylarni jarh qilish faqat ruhsat emas, balki u diniy zaruratdir. Bu man qilingan g‘iybat emas, balki Alloh va uning rasulining diniga xayrixohlikdir. Chunki salafi solihlar va xalaflar: “Din nasihatdir” degan tamoyil asosida roviylarni tanqid qilganlar. Lekin buning sharti jarh qiluvchi kishi olim, taqvodor, parxezkor, adolatli va puxta olim bo‘lishi talab etiladi. Chunki bunday vasfdagi olim hech kimni behuda tanqid qilmaydi va zaruriy tanqidda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaydi. Ikkinchи sharti, jarh qiluvchi olimning ma’lumotlari sahih va gapi o‘zgalarga ta’sirli bo‘lishi lozim. Aks holda, roviy haqida aytgan so‘zi g‘iybat bo‘lib qoladi<sup>12</sup>.

Movarounnahrlik muhaddislar - Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Dorimiylar ishonchli hadislarni saralash bo‘yicha ishlab chiqqan usullari bilan jarh va ta’dil ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Hadislar tobiyalar va ulardan keyingi

<sup>11</sup> Abu Iso Termiziyy. Al-ilal as-sag‘ir lit-Tirmiziyy. - Bayrut: Dor al-Ma’rifat, 1996. - B. 4.

<sup>12</sup> X. Abiyev, A. Alloqulov, O. Hoshimov, M. Abduraxmonov. Sahihi Muslim sharhi. J. I. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 121-122.



avlodga faqat roviylar orqaligina yetib keldi. Shuning uchun ham hadislarning sahih yoki zaifligini aniqlash aynan ushbu roviylarga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham muhaddislar roviylarning rivoyat qilgan hadislari qabul qilinishi uchun o'ta puxta, nozik shartlarni qo'yganlar. Hadisning "ta'dil" qilinishi, ya'ni uni ishonchli sanab, qabul qilinishi uchun uning isnodidagi har bir roviyga bir qator talablar qo'yiladi. Jumladan:

1. Adl – "adolatli" bo'lishi, ya'ni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:  
1) Islom – musulmon bo'lishi; 2) Balog'at – bolig', ya'ni balog'at yoshiga yetgan bo'lishi; 3) Aql – oqil, ya'ni aqli raso bo'lishi; 4) Taqvo – gunoh ishlardan saqlangan taqvodor bo'lishi; 5) Amal – ilmiga amal qiluvchi bo'lishi; 6) as-Salomat mina-l-fisq – fosiqlikdan xoli bo'lishi va h.k.

Hadis olimlari balog'at masalasida ikki xil fikr bildirganlar: 1) roviy hadisni eshitayotganda besh yoshga to'lgan bo'lishi ham mumkin. Asos sifatida sahaba Mahmud ibn Rubaydan: "Nabiy (s.a.v.)dan aql o'rgandim. Chelakdan suv olib menga purkadilar, o'shanda besh yoshda edim", degan hadis keltiriladi; 2) ba'zilar rivoyatni eshitayotganda balog'at yoshini belgilamaganlar. Bola bu paytida yolg'on gapirishni bilmaydigan hamda eshitgan narsasiga mantiqan to'g'ri javob qaytara oladigan darajada bo'lishi lozim. Mazkur shartlar topilgan roviy hadis ilmida "adolat sohibi", ya'ni hadislarini qabul qilish mumkin deb hisoblanadi. Aks holda unda adolat yo'q deb hisoblanadi va uning rivoyati qabul qilinmaydi. Bundan tashqari quyidagi ikki shart adolatning sobit bo'lishiga kifoya qiladi: 1) odil deb e'tirof etilgan olimlardan biri u roviyni ham odil ekaniga hujjat dalil keltirgan bo'lishi; 2) ahli ilmlar o'rtasida adolatligi mashhur bo'lib, unga maqtovlar aytilgan bo'lishi; bu holatda o'zga bir roviyning u haqda "odil" deb hujjat keltirishiga hojat qolmaydi.

2. Zabt – "zabit" (xotirasi kuchli), xabari aniq bo'lishi shart. Xotirasi o'ta ishonchli, yodlash qobiliyati kuchli, xato va yanglishishlardan xoli bo'lishi, g'ofil bo'lmasligi hamda vasvas, ko'p gumonga, vahimaga tushavermaydigan bo'lishi lozim. Roviy zabit hisoblanishi uchun uning hadis rivoyat qilishida puxta, ishonchli shayxlardan olishiga e'tibor qaratiladi. Zabit roviylardan rivoyat qilsa, uni ham zabit deb atash mumkin. Agar rivoyat ishonchli (siqa) roviylarning rivoyatiga muxolif



kelaversa, unda uning zabitligiga xalal yetadi, natijada uning rivoyatini hujjat qilib bo‘lmaydigan darajaga tushib qoladi. Fisq ish qilgan kishi fosiqligidan qaytib tavba qilsa uning rivoyati qabul qilinaveradi. Ammo hadis to‘qish, yolg‘on hadis aytish kabi fisq ishlarni qilsa-yu, keyin tavba qilgan bo‘lsa, uning rivoyat qilgan hadislari e’tiborga olinmaydi, chunki yana yolg‘on gapirib qo‘yish ehtimoli bor. Shuning uchun ham jarh va ta’dil haqida ko‘pchilik hadisshunoslar tadqiqot olib borganlar va bu borada ko‘plab asarlar ta’lif etilgan<sup>13</sup>.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, hadis ilmida “ilm al-ilal” hamda “al-jarh vat-ta’dil” ning ahamiyati katta bo‘lib, muhaddis ulamolar ushbu hadis ilmi sohalarini islom shariatini himoya qilish, bir roviy xatosi yoki yolg‘oni sababidan buzilib ketishining oldini olish maqsadida qo‘llaganlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.Abiyev, H.Aminov, M.Ismoilov, B.Abdullayev. Sahihi Buxoriy sharhi. 4 jild. – T.: Hilol-nashr, 2022. - 416 b.
2. X.Abiyev, A.Alloqulov, O.Hoshimov, M.Abduraxmonov. Sahihi Muslim sharhi. – T.: Hilol-nashr, 2023. – 639 b.
3. D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova. Hadisshunoslik. - T.: Toshkent islom universiteti, 2013. - 268b.
4. Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a’lom an-nubalo. 25 jild. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 1992.
5. Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Hadyu as-soriy. – Bayrut: Dor al-ma’rifat, 1997. – 698 b.
6. Abdulvahhab ibn Ali ibn Abdulkofiy as-Subkiy. Tabaqot as-Subkiy. 10 jild. – Qohira: Dor ihyo al-kutub al-arabiyya, 1989.
7. Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon ash-Shahrazuriy. Muqaddimatu ibn Saloh. / Tahqiq: Doktor Nuriddin Itr. – Damashq: Dor al-fikr, 1986. – 670 b.
8. Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Xatib Bag‘dodiy. Tarixi Bag‘dod. 17 jild. – Bayrut: Dor al-g‘arb, 2001.

<sup>13</sup> D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova. Hadisshunoslik. - T.: Toshkent islom universiteti, 2013. - 223b.



9. Abu Iso Termiziy. Al-Jome as-sahih. 5 jild. / Tahqiq: Ahmad Muhammad Shokir.  
– Misr: Shirkat mакtabat, 1978.
10. Abu Iso Termiziy. Al-ilal as-sag‘ir lit-Tirmiziy. - Bayrut: Dor al-Ma’rifat, 1996.  
- 144 b.
11. Jaloliddin Suyuti. Tadrib ar-roviy. 2 jild. – Jidda: Dor al-minhoj, 2016. - 502 b.
12. Nuriddin Itr. Usulu jarh va ta’dil. - Damashq: Dor al-Yamoma, 2007. - 251 b.